Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ziyorat turizmini o'rganishning va uning metodologik asoslari

Xoliyorova Nigina
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti talabasi
Tel: 99 086 4510
Ilmiy rahbar: **Turdiyev Madiyor**

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada avvalambor, ziyorat turizmi haqida qisqacha tushuncha, yurtimizda ziyorat turizmini jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish hisobiga hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm ob'ektlari bo'yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish haqida tushunchalar berib o'tilgan.
Kalit so'zlar: Ziyorat turizmi, gidlar (ekskursiya etakchilari), turistik tashkilotlar, turoperatorlar, madaniy-tarixiy turizm.

АННОТАЦИЯ:В данной статье, прежде всего, краткое понимание паломнического туризма, бурное развитие паломнического туризма в нашей стране, полное и эффективное использование имеющегося огромного туристического потенциала, создание новых туристических направлений в регионах за счет развития традиционного культурно-исторического туризма, их паспортизация, туристские договоренности даны о разработке и координации реализации национальных и региональных программ комплексного развития внутреннего, въездного и выездного туризма, направленных на формирование единых национальных реестров по направления и объекты туризма.
Ключевые слова: Паломнический туризм, гиды (экскурсоводы), туристские организации, туроператоры, культурно-исторический туризм.
ANNOTATION: In this article, first of all, a brief understanding of pilgrimage tourism, the rapid development of pilgrimage tourism in our country, the full and effective use of the existing huge tourism potential, the establishment of new tourism destinations in the regions at the expense of the development of traditional cultural and historical tourism, their passporting, tourism understandings were given about the development and coordination of the implementation of national and regional programs for the comprehensive development of domestic, inbound and outbound tourism, aimed at the formation of unified national registers on the directions and tourism objects.
Key words: Pilgrimage tourism, guides (excursion leaders), tourist organizations, tour operators, cultural-historical tourism.

KIRISH

O'zbekiston dunyo miqyosida muqaddas qadamjolarga boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida islom ilmlari rivojida beqiyos o'rin tutgan buyuk mutafakkirlar xoki abadiy qo'nim topgan manzillarni o'rganish, ularni obodonlashtirish ishlari olib borildi, ushbu manzillar ziyorat qiladigan maskanlarga aylantirildi. Bunday qadamjolar nafaqat O'zbekiston aholisi, balki butun islom olami uchun muqaddas hisoblanadi. Hozirgi kunda Samarqand viloyatida 1851 ta moddiy-madaniy meros obyekti mavjud bo'lsa,[1] Buxoro viloyatida ularning soni 829 tani tashkil etadi[2]. Bular orasida ziyorat qilinishi mumkin bo'lgan muqaddas joylar ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, birgina Buxoro viloyatida joylashgan obyektlar orasida 105 ta masjid va 14 ta maqbara mavjud bo'lib, ularda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Mazkur omillar so'nggi to'rt yil davomida O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, uni jahon miqyosiga olib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ammo, shunga

qaramasdan bu borada o‘z yechimini kutayotgan masalalar mavjud bo‘lib, ularning tahlili bu borada ayrim taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berishi mumkin. Shu sababdan sohada amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalarini ilmiy tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

2017 yilda O‘zbekistonda sayyohlikning alohida sohasi bo‘lgan ziyorat turizmini rivojlantirish va jahonga tanishtirish bo‘yicha tizimli ishlar boshlab yuborildi. Jumladan, 2017 yil 16 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Bu hujjat bilan O‘zbekistonga sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turistik obyektlarni tashkil etishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi[3].

Bundan tashqari, mazkur qaror asosida bir oy muddat ichida fuqarolariga 2018 yilning 1 yanvaridan viza tartibini soddalashtirish taklif etilayotgan mamlakatlar hamda fuqarolariga maxsus ziyorat turizmi dasturlari taklif etiladigan davlatlar ro‘yxatini shakllantirish, shuningdek, Malayziya, Indoneziya va boshqa mamlakatlardan O‘zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizmi yo‘nalishida sayyohlar jalb qilish bo‘yicha ishlarni faollashtirish, bu borada kerakli reklama tadbirlarini o‘tkazish, logistika, jumladan, charter reyslarini tashkil etish va boshqa vazifalar belgilandi[4].

Bundan tashqari, yurtimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining “Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish markazi” davlat unitar korxonasi tomonidan yangi davlat standarti ishlab chiqildi. Mazkur hujjat asosida 2018 yilning 1 yanvaridan turistik xizmatlar, joylashtirish vositalari, umumiy talablar bo‘yicha standart kuchga kirdi. Yangi qoidalarga ko‘ra, har bir mehmonxonaning umumiy xonalar sonining kamida o‘ndan birida Qur’oni karim, ibodat qilish uchun joynamoz hamda kamida 30 foizida qibla ko‘rsatgichi qo‘yilishi shart qilib belgilandi[5].

Bu davrda O‘zbekistonga keluvchi sayyohlar uchun viza rejimini yengillashtirish bo‘yicha ham ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda 2018 yil 3 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Unga muvofiq, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Isroil fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy qilindi. Shuningdek, 39 mamlakat fuqarolari uchun soddalashtirilgan viza tartibi joriy etildi. Vizasiz kiruvchi xorijliklar safiga 2019 yil mart oyidan tojikistonliklar, oktyabrdan fransiyaliklar ham qo‘shildi[6].

Bundan tashqari, mamlakatimizda “halol turizm”ni rivojlantirish bo‘yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2018 yilda “Halol turizm” bo‘yicha “Crescent Rating” tashkiloti tomonidan 2017 yilda tuzilgan reytingda (2017 yilda tuzilgan reytingda O‘zbekiston 28. Shundan, “xavfsiz sayohat” – 100 dan 84 ball, “ibodatxonaga kirish erkinligi” – 80, “ovqatlanish imkoniyatlari va kafolatlari” – 70, “viza” – 50, “aeroport imkoniyatlari” – 48,3, “oilaviy ta’til” – 44,4, “yashash sharoitlari” – 33,2, “musulmonlar uchun imkoniyatlar” – 25, “sayyohlarning kelishi” – 21,2, “kommunikatsiya imkoniyatlari” – 19) quyi darajada baholangan, kam rivojlangan yo‘nalishlarni yaxshilashga e’tibor qaratildi. Xususan, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan “Crescent Rating” tashkiloti bilan hamkorlikda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar asosida xalqaro aeroportlarda ibodat amallarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratildi[7].

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi tarkibida ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘limining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha tahliliy hujjatlar tayyorlash, mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish yuzasidan tegishli takliflar taqdim etish mazkur bo‘limning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Bundan tashqari, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi

tomonidan Toshkent shahrida ziyorat turizmini rivojlantirish, ro‘yxatga olingan 15 ta diniy muassasaga tashrif xaritalari ishlab chiqildi. Indoneziya va Malayziya sayyohlik agentliklari va mehmonlariga mo‘ljallangan halol ovqatlanish joylari, milliy oshxonalar, restoranlar, oilaviy tashrif joylari xaritasi tayyorlandi. Shuningdek, yurtimizda ilk bor ziyorat turizmi sohasi uchun zarur bo‘lgan “Halol” standarti joriy etildi. O`z navbatida keyingi yilllarda Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlari hukumatimiz va xorijiy investorlar tomonidan turizm infratuzilmasi uchun mablag`lar ajratildi. Shuningdek yirik mehmonxonalar qurildi. Modernizatsiya qilindi, yangi zamon talabiga mos avtobus va avialaynerlar sotib olindi. Bugungi kunda ko`plab xususiy mehmonxonalar va milliy uylar bunyod etilib mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilib bormoqda. Rekriatsion hududlari, masalan Chorbog`-Chimyon hududiga respublika budjetidan katta mablag` ajratildi. Madaniy-tarixiy yodgorliklarni ta`minlash ishlari davom etmoqda. Lekin shunga qaramasdan respublikamizda ichki turizm ziyorat turizmi masalalari ko`ngildagidek holatda emas. Bundan tashqari hattoki, respublikamiz aholisidan aksariyat qismi butun dunyoga mashhur bo`lgan Samarqand, Buxoro, Xiva Shaxrisabiz kabi tarixiy shaharlarni biror marotaba bo`lsa ham ko`rish imkoniyatiga ega emas. Shu bois ichki turizmni rivojlantirish aholimizda turizm va dam olish ehtiyojlarini to`liqroq qondirish uchun turistik resurslardan maksimal tarzda foydalanish zarur.

XULOSA

Hozirgi kunda tez suratlarda ommalashib borayotgan turizm sohasi hisoblangan ziyorat turizmini rivojlantirish mazkur sohada yuqori salohiyatga ega davlatlar uchun qulay imkoniyatdir. Yuqorida keltirib o‟tilgan fikrlardan va misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatning har bir a'zosi, shu jumladan tashqi davlatlar ham amal qilishi kerak bo'lgan ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish uchun muhim siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bundan tashqari, xorijiy sayyohlarni jalb qila oladigan infratuzilmani yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun ham hukumat, ham mahalliy idoralar tomonidan muvofiqlashtirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev, S. (2018). 2017-2022 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi. Tashkent.

2. Ana Maria Campon-Cerro, J. M.-M.-F. (2019). Best Practices in Hospitality and Tourism Marketing and Management. Springer Link.

3. The Official Order of Stay of Tourists in Uzbekistan for the Period of the Coronavirus. In www.uzbektourism.uz, www.uzbektourism.uz (p. Uzbekistan). Tashkent: 03.03.2020.

4. Ernazarov, G. (2021). Yangi xavfsiz va sog'lom turizm. Jenmin Jibao, Xitoy.

5. Ernazarov, G. (28.01.2021). Yangi xavfsiz va sog'lom turizm. Jenmin Jibao, Xitoy.

6. Huaxia. (2021). Uzbekistan expects int'l tourists to return after pandemic . In Xinhua, www.xinhuanet.com (p. China). Xinhua: 2021-02-14 16:47:38.

7. Jurakhonovich, K. S. (Apr - jun 2020). Pilgrimage Tourism in Uzbekistan; Problems and Solutions. Social Sciences and Humanities, Uzbekistan.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli ”Buyuk Ipak yo‘li” ini qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora -tadbirlar to‘g‘risidagi” farmoni. / Xalq so‘zi, 1995. 3 - iyun.

9. Биржаков М.М. Введение в Туризм: Учебник. - М.: «Издательский дом Герда», 2006. – 512 с.
10.https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=https://azkurs.org/modul-mustaqilik-davrida-ozbekiston-respublikasida-turizmni-ri.html&ved=2ahUKEwjZtZiIkLH-AhXxSPEDHfm5CjgQFnoECAwQAQ&usg=AOvVaw2tK8vptoJ7yHYI4Tc144B